



**O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA EKOLOGIK TARBIYA VA
BARQAROR RIVOJLANISH G'OYALARINI INTEGRATSIYA
QILISHNING AHAMIYATI**

Ilmiy rahbar: Hasanova Lobar

Navoiy innovatsiyalar universiteti v.b.dotsenti, PhD;

Rashidova Zulayho

Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi.

Annotatsiya: mazkur tezisda O'zbekiston ta'lif tizimida ekologik tarbiya va barqaror rivojlanish g'oyalarini integratsiya qilishning dolzarbliги tahlil qilinadi. Global ekologik muammolar – iqlim o'zgarishi, cho'llanish, suv tanqisligi, chiqindilar ko'payishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi – jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ekologik savodxonlikni oshirish, yosh avlodni ekologik madaniyat ruhida tarbiyalash va barqaror rivojlanish tamoyillarini ta'lif tizimiga tatbiq etish dolzarb masaladir. Mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar, konsepsiylar va strategiyalar ekologik ta'lifni kuchaytirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: ekologik ta'lif, ekologik tarbiya, barqaror rivojlanish, ekologik madaniyat, integratsiya.

Аннотация. В данной тезисе рассматривается актуальность интеграции экологического воспитания и идей устойчивого развития в систему образования Узбекистана. Глобальные экологические проблемы — изменение климата, опустынивание, дефицит воды, увеличение отходов и утрата биоразнообразия — оказывают негативное влияние не только на окружающую среду, но и на социально-экономическую жизнь общества. В связи с этим особое значение имеет повышение экологической грамотности,



воспитание молодого поколения в духе экологической культуры и внедрение принципов устойчивого развития в образовательный процесс. Принятые в стране законы, концепции и стратегии создают важную правовую основу для усиления экологического образования.

Ключевые слова: экологическое образование, экологическое воспитание, устойчивое развитие, экологическая культура, интеграция.

Abstract. This article analyzes the importance of integrating environmental education and sustainable development concepts into the educational system of Uzbekistan. Global environmental issues such as climate change, desertification, water scarcity, waste accumulation, and biodiversity loss affect not only the environment but also the socio-economic life of society. Therefore, raising environmental awareness, fostering ecological culture among youth, and incorporating sustainable development principles into education have become crucial. The adopted laws, concepts, and national strategies in Uzbekistan provide a strong legal basis for enhancing environmental education.

Keywords: environmental education, ecological upbringing, sustainable development, ecological culture, integration.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ekologik muammolar butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanishi, cho'llanish, suv tanqisligi, chiqindilar ko'payishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishi kabi global muammolar nafaqat atrof-muhitga, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [1]. Bu muammolarni bartaraf etishda asosiy omillardan biri sifatida aholining ekologik savodxonligini oshirish, barqaror rivojlanish tamoyillarini hayotga tatbiq etish va yosh avlodni ekologik madaniyat ruhida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi [2]. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan boshlab ekologik muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlash borasida qator huquqiy, tashkiliy va ilmiy-amaliy choralarini amalga oshirib kelmoqda. Xususan, "Atrof-muhitni muhofaza





qilish to'g'risida"gi qonun, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonun, "Ekologil ta'lismi va tarbiya konsepsiysi", shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ishlab chiqilgan milliy strategiyalar ta'lismi tizimida ekologik yo'nalishni mustahkamlashda muhim hujjatlar bo'lib xizmat qilmoqda [3]. Ekologik tarbiya axloqiy tarbiyaning ajralmas qismidir. Kishilarda ekologik ong va tafakkurni, ekologik dunyoqarashni hosil qilish tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi. Hamma bosqichlarda ekologik ta'lismi va tarbiyani talab etilgan darajada amalga ishirish uchun vazifaning muhimligini va mas'uliyatini yaxshi bilgan holda yoshlarni tayyorlash zarur. Ekologik ta'lismi-tarbiyaning asosiy vazifa va maqsadlari insonni tabiat bilan unda sodir bo'layotgan voqeliklar bilan qiziqtirish, inson tabiat o'rtasidagi muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash, yechim topish yo'llari, chora-tadbirlarini aniqlash yetarli ekologik bilimlarga ega bo'lgan holda atrof-muhit muhofazasini amalga oshirishdir [4].

Ekologik ta'lismi-tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

jamiyat va tabiatning rivojlanish qonunlari: ular o'rtasidagi munosabatlarni chuqur o'rgatish va zamonaviy fikrlay oladigan shaxsni tayyorlash;

ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini yo'naltirishda turli tabiiy hududlarning ekologik holatini biladigan va kelajakning ekologik rejasini tuzadigan avlodni tarbiyalash;

har bir inson jamiyat va jamiyat ichidagi turli guruhlar, toifalar, sinflarning o'zlari yashab turgan tabiat, uning boyliklarini saqlashga xizmat qiladigan yoshlarni yetishtirish.

Ekologik tarbiyani muktabgacha ta'lismi muassasalaridan boshlab, umumta'lismi maktablari, o'rta maxsus va oliy ta'lismi tizimiga bosqichma-bosqich joriy etish yosh avlodda ekologik savodxonlikni oshirish, barqaror rivojlanish tamoyillarini singdirish hamda ekologik madaniyatni shakllantirish imkonini beradi [5]. Shu nuqtai nazardan, ekologik ta'lismi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va raqamli vositalar bilan boyitish, yoshlarni tabiatni muhofaza qilish bo'yicha amaliy faoliyatga jalb etish katta ahamiyatga



ega. Bundan tashqari, ekologik tarbiya jarayonida nodavlat notijorat tashkilotlari, ekologik markazlar va jamoatchilikning faol ishtiroki ham muhimdir. Xususan, yoshlar o'rtasida ekologik volontyorlik harakatlari, tabiatni asrashga qaratilgan turli aksiyalar va loyihamalar amalga oshirimoqda. Bu jarayonlar o'z navbatida ta'lim tizimini ekologik tarbiya bilan boyitish va barqaror rivojlanish g'oyasini keng yoyishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda [6].

Xulosa. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ta'lim tizimida ekologik tarbiya va barqaror rivojlanish g'oyalarini integratsiya qilish zamon talabiga mos holda dolzarb masalalardan biridir. Ta'lim jarayonida ekologik bilimlarni singdirish, yoshlarning tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatini shakllantirish hamda ularda barqaror rivojlanish tamoyillariga yo'naltirish orqali jamiyatning ekologik madaniyatini yuksaltirish mumkin. Kelgusida ta'lim tizimida ekologik ta'limni yanada takomillashtirish, uni barcha fanlarga integratsiya qilish, interfaol usullarni keng joriy etish, ekologik amaliyotlarni kuchaytirish hamda yoshlarni barqaror rivojlanish g'oyalari asosida faol hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishlariga sharoit yaratish zarur. Bu esa nafaqat mamlakatimizning ekologik xavfsizligi, balki kelajak avlod uchun sog'lom va barqaror hayotiy muhitni ta'minlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Abdullayeva, G.** (2018). Ekologik ta'lim va tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlar. *Ta'lim va innovatsiyalar jurnali*, 3(2), 45–52.
2. **Glazachev, S. N.** (2017). Environmental education for sustainable development: Global trends and regional practices. *Sustainable Development Education*, 15(1), 12–19.
3. **Qodirova, D.** (2020). O'zbekistonda ekologik ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari. *O'zbekiston ekologik xabarnomasi*, 4(1), 21–28.
4. **Tilbury, D.** (2019). Education for Sustainable Development: An expert review of processes and learning. UNESCO Publishing.

5. UNESCO. (2021). *Education for Sustainable Development: Towards achieving the SDGs*. Paris: UNESCO.
6. Yusupov, R., & Karimova, S. (2022). Ekologik savodxonlik va barqaror rivojlanishda ta'limning o'rni. *Pedagogik izlanishlar*, 10(4), 77–85.

